

**BIZ YO'LOVCHI SIFATIDA O'Z HUQUQLARIMIZDAN TO'LIQ
FOYDALANYAPMIZMI?**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI YURIDIK FAKULTETI
YURISPRUDENSIYA YO'NALISHI TALABASI
MUMUHAMMADIYEV BAHROMJON QODIRJON O'G'LI
MUTALOV DILSHODJON QODIRJON O'G'LI

Annotatsiya: Ushbu maqolada davlatimiz tomonidan qonunlar va qonun osti hujjatlar orqali fuqarolarimizning iste'molchi sifatidagi huquq va erkinliklari, shartnoma tuzishdagi va uni lozim darajada bajarilmaganda yoki huquqlari buzilganda huquqlarini himoya qilish uchun ko'rishlari mumkin bo'lgan qonuniy choralar haqida asoslangan fikrlarimizni bayon etamiz.

Kalit so'zlar: Yo'lovchi, yetkazib beruvchi, bagaj, yuk, shartnoma, imtiyoz

Аннотация: В данной статье мы излагаем наши мнения, основанные на правах и свободах наших граждан как потребителей, правовых мерах, которые они могут принять для защиты своих прав при заключении договора и в случае его ненадлежащего исполнения или нарушения их прав.

Ключевые слова: Пассажир, поставщик, багаж, груз, договор, привилегия.

Abstract: In this article we present our opinions based on the rights and freedoms of our citizens as consumers, legal measures that they can take to protect their rights when concluding a contract and in the event of its improper execution or violation of their rights.

Key words: Passenger, supplier, baggage, cargo, contract, privilege.

Kirish: Hozirda biz texnika asri hisoblangan XXI asrda yashar ekanmiz insonlarning uzog'ini yaqin qiladigan va tadbirkorlik faoliyatlarida anchagina yengillik yaratib berayotgan transport vositalari ham jadal rivojlanib bormoqda, shu bilan birga kata va mayda tadbirkorlarning hamda fuqarolarimizning transport vositasiga bo'lgan ehtiyoji ham bu zamonaviy o'zgarishlar natijasida bir muncha qondirib kelinmoqda ammo shuni ham ta'kidlash joizki hali fuqarolarimizni va tadbirkorlarimizni ijtimoiy hayotlarida yo'lovchi tashish va yuk bagaj tashish xizmatlariga ehtiyojlari yetarli darajada shu bois davlatimizda ushbu munasabatlarni tartibga solish maqsadida rivojlangan huquqiy demokratik davlatlarnikidan qolishmas darajada xalqchil qonun va boshqa normativ huquqiy hujjatlar ishlab chiqilgan. Bunday qonunlarga misol qilib, avval O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi "Temir yo'l transporti to'g'risidagi", "Shaxar yo'lovchilar transporti to'g'risidagi", "Shaxar yo'lovchilar transportidan bepul foydalanishni tartibga solish to'g'risidagi", shuningdek "Iste'molchilarni

huquqlarini himoya qilsih to'g'risidagi" qonun va boshqa vakolatli organlar tomonidan chiqarilgan normative-huquqiy hujjatlarni keltirib o'tishimiz mumkin. Ammo shunga qaramasdan fuqarolarimiz o'zlarining yo'lovchi sifatidagi bir qancha huquqlarini va majburiyatlarini bilmasliklari natijasida bu sohada ancha tushunmovchiliklar va fuqarolik huquqiy nizolar kelib chiqmoqda buning natijasida esa fuqarolik va iqtisodiy ishlar bo'yicha sudlarda ish yuklamasi ish samaradorligiga ta'sir ko'rsatadigan darajada ko'paymoqda.

Asosiy qism. Avvalo biz yo'lovchi tashuvchi atamalarining tushunchalariga to'xtalib o'tamiz. Yo'lovchi – bu tashuvchining xizmatida foydalanuvchi shaxs hisoblanadi. Tashuvchi esa - mulk huquqi asosida yoki boshqa qonuniy asosda transport vositasiga ega bo'lgan, shaharda tijorat asosida yo'lovchilar tashish xizmati ko'rsatadigan va bunga maxsus ruxsatnomasi (litsenziyasi) bo'lgan yuridik shaxs yoki jismoniy shaxsdir. Yo'lovchi va tashuvchi o'rtasida vujudga keladigan ijtimoiy munasabat huddi sotuvchi va xaridorniki kabi shartnomaviy hisoblanib ommaviy offerta shartnomasidir. Ushbu sahrtnoma og'zaki yoki yozma tuzulishi mumkin. Yo'lovchi va bagaj tashish sahrtnomasida tuzulganda yo'lovchiga tegishli tarzda chipta yoki patta beriladi chiptada asosiy shartlar chipta baxosi transport jo'nash vaqti va chiptaning yaroqlik muddat yoziladi, xavo transporti va shaxarlar aro, xalqaro yo'nalishda harakatlanuvchi temir yo'l transporti chiptasida yo'lovchini ismi va familyasi odatda ko'rsatilmaydi.

Shaxar transportidan foydalanayotgan yo'lovchilarning qonunlar bilan belgilab qo'yilgan ularga yengilik yaratib beradigan bir nechta huquqlari mavjud. Avvalo yo'lovchilar shaxar transportinixar qanday turidan foydalanishlari mumkin va shu bilan birga ular o'zlari bilan yetti yoshgacha bo'lgan bolalarini bepul olib yurishlar hamda hajmi belgilangan kattalikdan oshmaydigan vazni esa yigirma kilogramgacha bo'lgan qo'l yukini haq to'lamasdan o'zlari bilan olib ketishlari mumkin. Belgilangan kattalik va vazndan ortiq qo'l yuki va bagajlar uchun qonunda aytib o'tilgan ta'riflar doirasida haq to'lab bagaj olib yurioshlari mumkin. Qonunchiligimizda shuningdek ba'zi toifa fuqarolarimiz uchun shaxar transportidan bepul foydalanish bo'yicha imtiyozlae belgilangan. Bunday sahxslar qatoriga 1941-1945-yillarda urush qatnashchilariga, 1941-1945-yillardagi urush nogironlariga va 1-gurux nogironlari bo'lmish xarbiy xizmatchilarga, 1941-1945- yillardagi urush davrida front ortida fidokorona mehnati va benuqson xizmati uchun orden va medal bilan taqdirlanganlarga, Afg'onistonda va bsohqa mamlakatlarda jangovar xarakatlarda qatnashgan sbiq baynalminalchi jangichilar jumlasiga kiruvchi fuqarolarga, xaqiqiy muddatli xarbiy xizmatni o'tayotgan xarbiy xizmatchilar, starshinalar, praporshiklar, kata praporshiklar, michman va kata michmanlarga hamda Chernobil AESi xalokati oqibatida nurlanish kasalligiga chalingan va uni boshidan kechirgan shaxslarga, ko'zi ojiz nogiron va ularga hamrohlik qilayotgan shaxslarga ushbu imtiyoz beriladi. Shu

bilan birga fuqarolarimizning temir yo'l transportidan foydalanish borasida ham bir talay huquqlari mavjud. Avvalo istagan poyezd istagan vagon va joyni band qilish, hamda besh yoshga bo'lgan bir nafar bolani bepulmolib yurish, 36 kg gacha bo'lgan shaxar atrofida yuradigan poyezdlarda esa 50 kg gacha yukni tekin olib yurish, eng asosiysi esa chiptaning muddatini o'zgartirib olib yo'lda biron joyda 10 sutkagacha qolish, tasodifan kasal bo'lib qolgan taqdirda butun davolanish muddatiga chiptaning yaroqlilik muddatini uzaytirilishini talab qilish huquqlariga ega va shuningdek har qanday shaxar yoki temir yo'l transporti yo'lovchini jo'natib yuborishni ya'ni uni belgilangan manzilga yetkizib borushni kechiktirsa va bunga uzrli asosli sabab bo'lmasa yoxud tashuvchining aybi bilan yo'lovchiga va uning yukiga zarar yetkazilsa yoki yuki yo'qolsa moddiy va ma'naviy zararni yo'lovchiga to'lab berishga majburdir bu yo'lovchilarning qonuniy huquqlari hisoblanadi.

Xulosa: Huquqiy demokratik davlatda yashar ekanmiz biz har birimiz yo'lovchi sifatida davlatimiz tomonidan o'rnatilgan o'z huquqlarini bilishimiz va ularni har yerda va har qachon talab qilishimiz boshqalarni ham bunga da'vat etishimiz zarur zero shunday qilsakkina biz jamiyatimizdagi huququiy ong va madaniyatning yanada o'sishiga va buning natijasida jamiyatimizda ko'p uchraydigan fuqaroviy nizolarni oldini olishga ham sud tizimini samarali ishlashiga o'z hissamizni qo'shgan bo'lamiz.

Foydalanilgan manbalar:

- 1) O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi
- 2) Fuqarolik huquqi maxsus qism darslik X.Rahmonqulov, I.Zokirov
- 3) <https://lex.uz/ru/docs/-39646>
- 4) <https://lex.uz/docs/-13081>
- 5) <https://lex.uz/docs/-10943?ONDATE2=02.09.2022&action=compare>